

YANGI O'ZBEKISTON JAMIYATIDA HUQUQIY ONG VA HUQUQIY MADANIYATNING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI

Djurabayeva Ruxshona To'ychiboy qizi

Jizzax viloyati yuridik texnikumi talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11520814>

Annotatsiya. Ushbu maqolada yangi O'zbekiston jamiyatida huquqiy ong va huquqiy madaniyatni rivojlantirishdagi muammolarga bag'ishlangan. Maqolada jamiyatdagi huquqiy ongning bugungi holati o'rganilib, qayd etilgan muammoni hal etish yo'llari taklif etilgan. Mamlakatda barcha davlat organlari, fuqarolik jamiyati institutlari hamda mansabdar shaxslar tomonidan fuqarolarning huquqiy ong va huquqiy madaniyatni rivojlantirish maqsadida olib boriladigan huquqiy targ'ibot faoliyatini yanada kengroq olib borish zarurligi nazarda tutilgan. Huquqiy targ'ibotni amalga oshirishda ommaviy axborot vositalari rolini oshirish masalalari ifodalangan.

Kalit so'zlar: Yangi O'zbekiston – yangi jamiyat, fuqarolik jamiyati, jamoatchilik nazorati, samarali tashabbus, jamoatchilik institutlari, “Ommaviy axborot vositalari, adolat tuyg'usi, madaniyat, ma'naviyat, maskura, yangicha dunyoqarash, huquqiy psixologiya, huquqiy tarbiya, yuksak huquqiy ong, ijtimoiy fikr.

LEGAL AWARENESS AND LEGAL CULTURE IN THE NEW UZBEKISTAN SOCIETY DEVELOPMENT TENDENCIES

Abstract. This article is devoted to the problems of developing legal consciousness and legal culture in the new Uzbek society. The article examines the current state of legal consciousness in society and suggests ways to solve the noted problem. It is envisaged that all state bodies, institutions of civil society and officials in the country should carry out more extensive legal promotion activities for the purpose of developing legal awareness and legal culture of citizens. The issues of increasing the role of mass media in the implementation of legal propaganda are expressed.

Keywords: New Uzbekistan - new society, civil society, public control, effective initiative, public institutions, mass media, sense of justice, culture, spirituality, ideology, new outlook, legal psychology, legal education, high legal consciousness, social thought.

ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИЯ ПРАВОВОГО СОЗНАНИЯ И ПРАВОВОЙ КУЛЬТУРЫ В НОВОМ УЗБЕКИСТАНСКОМ ОБЩЕСТВЕ

Аннотация. Данная статья посвящена проблемам развития правосознания и правовой культуры в новом узбекском обществе. В статье рассматривается современное состояние правосознания в обществе и предлагаются пути решения отмеченной проблемы. Предусматривается, что все государственные органы, институты гражданского общества и должностные лица страны должны проводить более широкую правопропагандистскую деятельность с целью развития правосознания и правовой культуры граждан. Высказаны вопросы повышения роли средств массовой информации в осуществлении легальной пропаганды.

Ключевые слова: Новый Узбекистан – новое общество, гражданское общество, общественный контроль, эффективная инициатива, государственные институты, средства массовой информации, правосознание, культура, духовность, идеология, новое

мировоззрение, юридическая психология, юридическое образование, высокое правосознание, общественная мысль.

Hozirgi kunda, chinakkam huquqiy demokratik davlat qurish hamda fuqarolik jamiyatini shakllantirishda, eng ustuvor vazifa sifatida jamiyatimizda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirib borish, qonun ustuvorligini ta'minlash eng muhim siyosiy masala bo'lib qolmoqda. Huquqiy davlatning eng muhim belgisi, shuningdek, uning shakllanishining ko'rsatkichi jamiyatning, fuqarolarning, huquqiy madaniyati darajasiga bog'liq bo'lib, ijtimoiy-huquqiy faoliyatni nazarda tutuvchi demokratik institutlarning rivojlanishi bilan belgilanadi.

Ayni paytda aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini shakllantirishning samarali tizimini yaratish nihoyatda muhim. Yangi O'zbekiston jamiyatida ham bu borada qator muammolar mavjud bo'lib, mazkur huquqiy muammolarni quyidagicha ifodalashimiz mumkin:

- jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatning pastligi;
- huquqiy tartibsizlik holatlarining ortib borishi;
- huquqiy nigelizm va infantilizm;
- hayotning barcha jabhalarida hukm surayotgan huquqiy madaniyatning etishmasligi, odamlarning kundalik munosabatlari sohasidan (fuqarolar davlatning huquqiy tizimi, amaldagi qonun hujjatlari to'g'risida zarur bilimga ega bo'lmasa, o'z huquq va majburiyatlarini amalga oshira olmasa, o'z manfaatlarini himoya qila olmasa);
- ommaviy axborot vositalari faoliyati yetarli darajada emasligi, xususan surishtiruv jurnalistikasi rivojlanmaganligi;
- aholini, xususan, yosh avlodni huquqiy tarbiyalash va tarbiyalash tizimining izchil emasligi;
- ommaviy axborot vositalari faoliyatining samaradorligi yetishmasligi.

Bu kabi muammolar yangi O'zbekistonda olib borilayotgan siyosatning maqsad va vazifalarini chuqur anglab yetish hamda uni real hayotda to'g'ri tadbiq etish yo'lida asosiy to'siq yaratadi. Darhaqiqat, bu kabi muammolar nafaqat mamlakatimizda, balki xalqaro miqyosda kuzatish mumkin. Misol tariqasida "Zamonaviy rus jamiyatida huquqiy ong inqirozi mavjudligi, shuningdek, Rossiya 21-asrga samarasiz huquqiy tizim, rivojlanmagan huquqiy madaniyat va yuqori darajadagi jinoyatlar bilan kirib kelmoqda" degan fikr taniqli rus mutafakkiri va huquqshunosi P.I. Novgorodtsev tomonidan keltirib o'tilgan. Unga ko'ra olingan so'rov ma'lumotlarini tahlil qilinib, ushbu tahlil markazi quyidagi xulosalarga kelgan. Hozirgi vaqtida ruslarning katta qismi konstitutsiya Rossiya Federatsiyasining asosiy qonuni sifatidagi roliga ahamiyat bermasligi, va afsuski, so'ralsan har o'ninchisi fuqaro Rossiya Federatsiyasi Konstitutsiyasining mazmunini yaxshi tushunishini aytdi. Fuqarolarning atigi beshdan bir qismi konstitutsiya mamlakat ehtiyojlariga to'liq javob beradi, deb hisoblaydi va qariyb yarmi Asosiy qonun mamlakatdagi ishlar holatiga mos keladimi yoki yo'qligi haqida hatto tasavvurga ham ega emas¹. Yuqoridagilardan kelib chiqib, Rossiya Federatsiyasi fuqarolarini, shujumladan davlat organlari, ommaviy axborot vositalari va jamoat birlashmalarini huquqiy ta'lim va tarbiyalashning izchil, o'zaro bog'liq tizimini yaratish uchun mamlakatda huquqiy madaniyatni

¹ Yuriy Levada tahliliy markazi (Levada markazi) fuqarolarning "Konstitutsiya haqida ruslar" savoli (06/05/2015).

rivojlantirish bo'yicha federalda sturni ishlab chiqish, uning tarkibida huquqiy ta'lim bo'yicha aniq kengash tuzish (tarkibiga huquqni muhofaza qiluvchi organlar vakillari, madaniyat arboblari, kino, televideniye, ilmiy va ta'lim huquqiy muassasalar vakillari va boshqalar kirishi lozim), shu bilan birga mazkur organ aholining huquqiy ma'rifat darajasini o'rganishi, huquqiy bilimlarni tarqatish bo'yicha ishlarning shakl va usullarini umumlashtirishi zarur. huquqiy ta'limni tashkil etish, huquqiy materiallar va ularni taqdim etish shakllarini tahlil qilish, targ'ibot ishlarining eng dolzarb yo'nalishlarini belgilash, tavsiyalar va yo'riqnomalar ishlab chiqishi belgilab o'tilgan.

Biz esa yangi O'zbekiston va yangi jamiyatimizda olib borilayotgan islohotlar samarali bo'lishi uchun bu kabi muammolarni yuzaga kelishini oldini olishga qaratilgan qat'iy choratadbirlar kompleksini ishlab chiqish va uni samarali amalga oshirmog'imiz lozim. Mazkur faoliyatni amalga oshirishda nafaqat davlat boshqaruv organlari va yuqori turuvchi tashkilotlar balki barcha davlat idoralari hamda fuqarolik jamiyatni institutlari tomonidan faol, tashabbuskor hamda oqilona faoliyat olib borilishi nazarda tutiladi.

Bugungi kungacha aholini huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga qaratilgan qator chora - tadbirlar amalga oshirib kelinayotganligi hamda bu islohotlar anchagina samarali natija berayotganligini ham ko'rishimiz mumkin. Bu borada, davlatimiz rahbarining 2019-yilgi PF-5618-sonli "Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi Farmoni² mazkur sohaga qaratilgan alohida e'tibor bo'ldi.

Unga ko'ra, quyidagilar asosiy vazifa etib belgilangan edi:

- O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligini jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish sohasidagi muvofiqlashtiruvchi organ etib belgilash;

- davlat organlari va tashkilotlarining huquqiy axborotdan keng ko'lamda foydalanishini ta'minlash, ularning ushbu sohada fuqarolik jamiyatni institutlari va ommaviy axborot vositalari bilan samarali hamkorlik qilish bo'yicha muvofiqlashtirilgan faoliyatni tshkil etish;

- ommaviy axborot vositalarining huquqiy axborot bilan ta'minlashdagi rolini oshirish, huquqiy targ'ibotning innovatsion usullaridan foydalanib, veb-texnologiyalarni qo'llashni kengaytirish;

- jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish konsepsiyasini samarali amalga oshirish bo'yicha "yo'l xaritasi"ni tasdiqlash belgilanib, konsepsiyada "Jamiyatda qonunlarga hurmat ruhini qaror toptirish – demokratik huquqiy davlat qurishning garovidir!, "Shaxsiy manfaatlar hamda jamiyat manfaatlari o'rtasidagi muvozanatni saqlsh", "Yuksak huquqiy madaniyat –mamlakat taraqqiyoti kafolati" degan g'oyalar singdirish hamda "Shaxs – oila –mahalla – ta'lim muassasasi – tashkilot – jamiyat" prinsipini tizimli va uzviy tashkil etish nazarda tutildi. Islohotning mantiqiy davomi sifatida 2020-yil "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-sonli Qonun hamda 2020-yil PF-5987-sonli "O'zbekiston Respublikasida yuridik ta'lim va fanni tubdan takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmon³ natijasida

² Qarang. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-yanvardagi "Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi PF-5618-son Farmoni. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 30.11.2021-y., 06/21/26/1111-son; 04.07.2023-y., 06/23/107/0441-son.

³ Qarang. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-apreldagi "Ozbekiston Respublikasida yuridik ta'lim va fanni tubdan takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5987-son Farmoni. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 25.12.2021 y., 07/21/61/1195-son; 04.07.2023 y., 06/23/107/0441-son.

ta'limning barcha shakllari joriy etilib, keng yuridik jamoatchilik ishtirokida yuridik kadrlar tayyorlash sifatini oshirish, shuningdek, huquqiy targ'ibotni samarali amalga oshirish va oliy ta'lum amalga oshirish boshlandi. Biz qurmoqchi bo'lgan yangi O'zbekiston jamiyatida huquqiy ong va huquqiy madaniyatni oshirishda davlat organlari, ayniqsa huquqni muhofaza qiluvchi idoralar, sud, prokuratura, ichki ishlar idoralari, adliya organlarigina emas, balki barcha fuqarolik jamiyatni institutlari, mansabdar shaxslar hamda keng jamoatchilik ishtirokida yangicha chora-tadbirlar amalga oshirilib, ularni ommaviy axborot vositalari yordamida keng targ'ib qilish lozim. Amalda esa fuqarolik jamiyatni institutlari va ommaviy axborot vositalari faoliyati hamkorligi va samarali faoliyati borasida qator muammolar borligini kuzatishimiz mumkin, ammo huquqiy targ'ibot borasidagi amalga oshirilayotgan ayrim tashabbuskor yetarlicha samara bermoqda.

Xulosa o'mnida shuni aytish joizki, fuqarolarga (ayniqsa, aholining kam ta'minlangan qatlamlariga) ijtimoiy masalalar va fuqarolik qonunchiligi bo'yicha yuridik yordam ko'rsatish bo'yicha ommaviy yuridik maslahatlar tarmog'ini tashkil etish galdeg'i vazifamizdir. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tizimidagi TDYU (Toshkent Davlat Yuridik Universiteti) hamda yuridik texnikumlar tarkibida aholiga huquqiy yordam ko'rsatadigan "Yuridik klinika" bo'limlari faoliyati tashkil etilgan bo'lib, ular faoliyatini yanada takomillashtirish hamda bu jarayon haqida ommaviy axborot vositalarida kengroq yoritish maqsadga muvofiq bo'lar edi. Misol uchun Adliya vazirligi yangi jamiyatimizda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni rivojlantirish faoliyatini muvofiqlashtiruvchi organ sifatida mazkur vazirlik matbuot xizmatining televideniya orqali doimiy huquqiy axborot beradigan kanalini tashkil etish to'g'ri bo'lardi. Shuningdek, yurtimizda surishtiruv jurnalistikasini yanada rivojlantirish hamda taqdim etilayotgan huquqy axborotni juda yuqori sifatda (yangi rivojlanish g'oyalarimiz yordamida) tayyorlash albatta o'z natijasini beradi. Vaholanki, ommaviy axborot vositalarini chinakkamiga "to'rtinchchi hokimiyat" sifatidagi roli juda muhimdir. Ommaviy axborot vositalarining eng keng tarqalgan turlari orqali mamlakatimizda olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va boshqa sohalarida olib borilayotgan islohotlar yanada kengroq yoritib borish har qachongidan ham muhim hisoblanadi. Zero bu – davr talabi. Mamlakatimizda nafaqat davlat boshqaruvi organlari, balki fuqarolik jamiyatni institutlari (nodavlat notijorat tashkilotlari, jamoat tashkilotlari, assotsiatsiyalar, uyushmalar, markazlar, milliy-madaniy markazlar, klublar, jamg'armalar) ham huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni samarali olib borsa bu faoliyat rivojiga erishish mumkin. "2021-2025-yillarda Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-6181-sون Farmoni asosida nodavlat notijorat tashkilotlariga hamda fuqarolik jamiyatni institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondlariga 2021-yilda 16 milliard so'm, 2025-yilda 70 milliard so'm mablag' ajratish nazarda tutilgan. Ammo hozirgi kungacha real ijtimoiy hayotda fuqarolik jamiyatni institutlari faoliyatda rajasi juda pastligicha qolmoqda. Vaholanki, "Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida"gi Qonunga muvofiq, Nodavlat notijorat tashkilotlari jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini, boshqa demokratik qadriyatlarni himoya qilish, ijtimoiy, madaniy va ma'rifiy maqsadlarga erishish, nomoddiy ehtiyojlarni qondirish hamda boshqa ijtimoiy foydali maqsadlarda tuziladi. Biz "... boshqa ijtimoiy foydali maqsad" deganda albatta huquqiy ong va huquqiy madaniyatni rivojlantirish masalasini nazarda tutishimiz mumkin. Mazkur institutlarning professional aoliyat olib borishiga erishish qurmoqchi bo'lgan yangi jamiyatimizning asosiy

kuchiga aylanadi. Ya’ni huquqiy targ‘ibotning puxta o‘ylangan va samarali tizimigina jamiyatning huquqiy madaniyatini yuksaltirishga qodir bo‘ladi, fuqarolarning huquqiy ongini yuksaltirishga yordam beradi.

REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasining 1991-yil 15-fevraldag‘i “O‘zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari to‘g‘risida”gi 223-XII-son Qonuni.
2. O‘zbekiston Respublikasining 1999-yil 14-apreldagi “Nodavlat notijorat tashkilotlari to‘g‘risida”gi 763-I-son Qonuni. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 07.02.2024-y., 03/24/905/0106-son.
3. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-son Qonuni. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 01.02.2024-y., 03/24/901/0082-son.
4. O‘zbekiston Respublikasining 2007-yil 15-yanvardagi “Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida”gi O‘RQ-78-son Qonuni. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 07.02.2024-y., 03/24/905/0106-son.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-yanvardagi “Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-5618-son Farmoni. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 04.07.2023-y., 06/23/107/0441-son.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-apreldagi “Ozbekiston Respublikasida yuridik ta’lim va fanni tubdan takomillashtirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5987-son Farmoni. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 04.07.2023 y., 06/23/107/0441-son.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 4-martdag‘i “2021 – 2025-yillarda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-6181-son Farmoni. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 8.03.2022-y., 06/22/89/0227-son.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 03.01.2024-y., 06/24/221/0003-son.

Internet saytlari

9. www.lex.uz
10. www.norma.uz
11. www.huquqiportal.uz